O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULU□BEK NOMIDAGI
O’ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI
ARXIVSHUNOSLIK YO’NALISHI

"MANBASHUNOSLIK VA ARXIVSHUNOSLIK" KAFEDRASI

**NORMURODOV JAMSHID ERGASHEVICH**

# MUSTAQILLIK YILLARIDA SIRDARYO VILOYAT DAVLAT ARXIVIDAGI YUTUQ VA KAMCHILIKLAR

## BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: t.f.n;dots.v.b. **M.S.Hamidova**

Toshkent-2014

## MUNDARIJA

**KIRISH**............. ............ . .......................................................................................... 3

**I BOB. SIRDARYO VILOYATIDA ARXIVISHINING TASHKIL ETILISHI**

Ll. Sirdaryo viloyatida arxiv ishining tashkil etilishi tarixi .................................... 11
I. 2. ................................ Viloyat davlat arxivining mustaqillik yillaridagi faohyati 17

**H BOB, SIRDARYO VILOYATI DAVLAT ARXIVI FONDLARI TAVSIFI**

II. 1. Mustaqillka qadar mavjud bO’lgan fondlar tavsifi........................................ 24

11.2. Mustaqilhk yiharida tashkil etilgan yangi fondlar..........................................36

11.3. Viloyat arxiv ishi sohasida erishilgan yutuqlar. ........ .................................... 41

IL4, Arxiv ishi: kamchiliklar va ulami bartaraf etish chora-tadbirlari................ 46

**XULOSA ........ .................. ............................................ ....... ................................ 51**

**FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR**

**RO’YXATL.................... ................................ . ............ ...... .............................. 54**

**ILOVALAR**

# KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixini O'rganish davlat siyosati darajasiga kO'tarildi. Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-ma'naviy islohotlar milHy qadriyatlami qayta tiklanishi, tarғib qilinishida va har tomonlama rivojlanishiga asosiy omil bO'lib xizmat qilmoqda, Shu bilan birga ushbu jarayonlar uzoq va yaqin tarixiy O'tmishni haqqoniy O'rganish, bO'Hb O'tgan voqea, xodisalami xolis anglash, ulami kelgusi avlodga yetkazib berishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Hozirgi kunda moddiy va ma'naviy merosimizni xolis O'rganishga jamoat qiziqishining ortishi, xususan, milliy tariximizning bebaho manbalarini O'zida jamlagan arxiv hujjatlarini ilmiy O'rganish, O'zbekiston RespubHkasida arxiv tashkilotlari faohyatining ijodiy tajribasini umumlashtirish ehtiyojini oshirdi.

Birinchidan, arxivlar nafaqat hujjatli ma'lumotlar majmuasi bO'libgina qolmay, ularda ish yuritishning O'ziga xosligi tarixiy tajriba asosida O'z aksini topgan. Shu sababli, ilmiy izlanishlar darajasi ma'lum ma'noda arxiv ishini yO'lga qO'yish bilan uzviy boғliq.

Ikkinchidan, mustaqillikka qadar sovet davri ijtimoiy-siyosiy sharoitida O'zbekistonda arxiv ishini ilmiy O'rganishga, tarixiy faktlarga xolis yondashish hamda mahalliy xalqning milliy qadriyatlarini tO'ғri talqin qilishga davr siyosati imkon bermagan.

Uchinchidan, mustaqillik davrining dolzarb vazifalari arxiv idoralarining ijtimoiy funksiyasini qayta baholash zaruriyatini keltirib chiqardi. Bugungi kunda arxivlaming xalqimiz madaniy merosini saqlovchi ma'naviy boylik markazi sifatida O'rganilishi, ulaming davlat hamda jamiyat hayotidagi ahamiyatini tushunib yetish va kO'rsatib berish dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda.

Hozirda arxiv muassasalari millat ma'naviy potensialini oshirishning yetakchi dastagi hamda ma'naviy-axloqiy takomillashuv kalitlaridan biri sifatida safarbar qilingan. Shu ma'noda, I.A.Karimov asosli ravishda ta'kidlaganidek: "O'z tarixini biluvchi va undan ma'naviy ozuqa olib turuvchi xalqni maғlub qilib

bO'lmaganidek, O'zimizning liaqiqiy tariximizni tiklashimiz va bu bilan millatni qurollantirmoғimiz zarur"\

O'zbekiston Respubiikasining mustaqillik sharoitida jamiyatning barcha sohalarida, jumladan, arxiv ishi sohasida ham tubdan islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ushbu davrda O'zbekistonda arxiv ishini tashkil etish, boshqarish, arxiv hujjatlarini jamlash, butlash, ulami saqlash, hujjatlardan foydalanishni tashkillashtirish va boshqa bir qator ishlar tartib-qoidalarini O'zida aks ettirgan qonunlar va boshqa huquqiy me'yoriy hujjatlar qabul qiHndi. Ushbu huquqiy-me'yoriy hujjatlami amalga tadbiq etilishi soha rivojini ta'minlashda amaliy jihatdan muhim hisoblanadi. Shunday amaliy ishlardan biri O'zbekistonda Davlat arxiv fondi O'rnida O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondining tashkil etilishidir. Respublika Milliy arxiv fondi Davlat arxiv fondidan farqli O'laroq davlat va nodavlat arxiv fondlarini O'zida jamlangani bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, arxiv ishini boshqarish, arxiv hujjalarini davlat rO'yxatidan O'tkazish, arxivlami zamonaviy texnika vositalari bilan jihozlash, hujjatlaming elektron nusxalarini yaratish borasida qilinayotgan ishlar e'tiborga molikdir.

Shuningdek, Respublika Milliy arxiv fondining bO'linmas tarkibiy qismi hisoblangan Sirdaryo davlat arxivi va u yerda saqlanayotgan fondlar tavsifi, xususan, mustaqilhk yillarida vakolatli davlat organlari tomonidan ishiab chiqariigan huquqiy-meyoriy hujjatlar asosida Sirdaryo viloyatida arxiv ishining tashkil etilishi va rivojlantirilishi masalalarini O'rganish arxiv ishi sohasining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

O'zbek xalqining haqqoniy tarixini tiklashda respublikamiz arxivlarida saqlanayotgan manbalaming ahamiyati kattadir. Ilgari O'rganilmagan, istibdod mafkurasiga mos tushmagan arxiv hujjatlarini ilmiy muomilaga kiritish, asl mohiyatini ochib berish O'z yechimini kutayotgan masalalami yoritish dolzarbligini oshiradi. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek.

' Karimov LA. O'z kelajagimizni O'z qO'Iimiz bilan quramiz. - T.: O'zbekiston, 1999. - B.146.

"O’zbek olimlarining kucli-ғayratlari bilan tariximizning kO’pdan kO’p ғoyat muhim sahifalari... yangidan kashf etildi"^.

Shu nuqtai nazardan mazkur manbalar saqlanuvchi muassasalar, xususan, Sirdaryo davlat arxivi faohyati tarixini yoritish ham tanlangan mavzuning muhim jihatlaridan biri sanaladi.

Ma'lumki, mustaqillik yillarida O’zbekiston Respublikasida O’ziga xos arxiv tizimi joriy etilgan bO’lib, ulaming ichida Sirdaryo viloyat davlat arxivi ham O’ziga xos O’rin tutadi. Shu kungacha tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolgan bu dolzarb muammoni tadqiq etish, arxiv fondi tashkil qilishning ob'ektiv va sub'ektiv omillari, oqibatlarini tahlil etish amaliy jihatdan muhim hisoblanadi. Hujjatlarda tarixning har bir lahzasi, sanasi tilga kiradi, sodir bO’lgan voqea xodisalami hikoya qiladi. Hozirgi kunda"0'zarxiv" agentligi tizimida 3 ta Markaziy davlat arxivi, Qaraqalpoғiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi va uning 10 ta filiali, 12 ta viloyat davlat arxivi va ulaming 75 ta filiali va Toshkent shahar davlat arxivi faoliyat kO’rsatmoqda. Respublikaning jami 103 ta davlat arxivlarida 8 mln 300 mingdan ortiq saqlov birligidagi hujjat saqlanadi. Ulardan 6 641 618 tasi boshqaruv hujjatlari, 40 894 tasi ilmiy-texnikaviy hujjatlar, 19019 tasi kino, 232384 tasi foto, 15083 tasi ovozli hujjatlar va 60391 tasi shaxsiy kelib chiqishga oid hujjatlardir. O’zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi tarkibiga 6 mln 600 mingdan ortiq hujjat kiritilgan. Xususan, Sirdaryo viloyat davlat arxivining O’zida 406 ta fond tarkibida 160200 saqlov birligidagi hujjatlar saqlanmoqda.

**Tadqiqotning davriy chegarasi.** Tadqiqotda Sirdaryo viloyat davlat arxivi tashkil topgan sanadan boshlab, ya'ni 1963-yildan to 2013-yilgacha bO’lgan davrdagi faoliyati va unda jamlangan hujjatlar tavsifi imkon qadar yoritiladi.

**Muammoning O’rganilganlik darajasi.** Sovet davrida arxiv tarixiga oid bir qancha ilmiy ishlar amalga oshirilgan bO’lsada, xalqimizning ma'naviy, madaniy, tarixiy merosi buzilib, bir yoqlama O’rganilingan. Aslida esa O’zbekiston

^ Karimov I.A. O’zbyekiston XXI ars bO’sarasida: xavfizliklikka tahdid, barqarorlik shartlari vataraqqiyot kafolatlari. - T.: O’zbyekiston, 1997. - B.141.

Prezidenti LA.Karimov qayd etganidek: "Xoh O’tmishda, xoh bugun bO’lsin, boshqa millat, davlatni O’ziga qaram qihsh niyatida harakat qilgan, qilayotgan kuchlar doimo bir siyosatni yuritganlar, yuritadilar: ya'ni qaram xalqning ma'naviy, madaniy, tarixiy merosini yO’q qilish, undan judo etishga intiladilar"^.

Mavzuning tarixshunosligi davriy farqlarga ega bO’lgani uchun uni ilmiy nuqtai nazardan ikki guruhga ajratib tahlil qiiish maqsadga muvofiq:

- sovet davrida nashr etilgan adabiyotlar va ilmiy-ommabop maqolalar;
- mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar.

Birinchi gumxga G.A.Belov, L.P.Volkov, M.A.Didenko, LN.Kuntikov, K.G.Mityaev, V.Novospasskiy, S.Morozov va boshqalar tomonidan chop ettirilgan ilmiy asarlar hamda O’quv uslubiy qO’llanmalami kiritish mumkin"^. Mualliflar arxiv hujjatlari nashr ettirish tushunchasi, arxeografiya nazariyasi va metodikasi hamda arxiv hujjatlami ekspertiza qilish, ulami davlat saqloviga qabul qilish, saqash, ulardan foydalanishni tashkil etish masalalarini yoritib berishishgan. Ushbu gumhga tegishli ilmiy adabiyotlarda Sirdaryo viloyat davlat arxivi tarixiga oid aniq ma'lumotlar bO’lmasada, ularda sovet davridagi arxivlar faoliyati, umuman arxiv ishi nazariyasi va amaliyotiga oid qator masalalar atroflicha yoritilgan. Ma'lumki Sirdaryo viloyat davlat arxivi ham aynan sovet davri, ya'ni viloyatning tashkil topishi bilan chambarchas boғiqdir. Ya'ni, Sirdaryo viloyat davlat arxivi Respublika hukumatining 1962-yil 5-maydagi 403-sonli qarori va viloyat ijroiya qO’mitasining 1963-yil 15-iyundagi "Sirdaryo oblastida davlat arxivlarini tashkil qilish tO’g'risida"gi 4/89-sonli qaroriga binoan tashkil etilgan. Mazkur viloyat davlat arxivi dastlab viloyat ijroiya qO’mitasi qoshida 18 shtat birligi bilan 1963 yilning 15 iyundan boshlab O’z faoliyatini boshlagan. Shu sababli, ushbu ilmiy adabiyotlarda butun mamlakatda bO’lgani kabi, viloyat davlat arxivida ish yuritish.

^ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yO’q. - T.: Sharq, 1998. - B. 24.
* MHTJieB K.Г. Teopiw H npaKTHKa apxHBHoro aejia B CCCP. - M., 1946; MoposoB C. OoTorpa^HJi B Hayne. - M., 1955; BejioB Г.A. TeopHa H npaKTHKa apxHBHoro jtejia B CCCP. YIESHOE noco6He. - M.: THnorpa4)i«i BopoBCKoro, 1958; BOJIKOB H. ApxHBHbie OoTozioKyMeHTBi H npecca. - CoB.apxHBH, 1966. X22; /],HjieHKo M.A. XyfloacecTBCHHbie o()}opMJieHHe HarjiajiHBix cpejicTB arHTaiiHH H nponaraHflti. - M., 1971; KyHTHKOB H.H. KHHOjioKyMeHTBi B Hayifflbix HCCneflOBaHHHx. - Bocn apxHBOBeflenHa. 1962 J^22; HoBoccnacKHii B. tPoTorpacJjHH B KHHre. - M., 1973; HsaaHHe flOKyMenTOB B HayHHO-nonyjiapHbix uejiax. - M., 1975.

hujjatlami jamlash, ulaming ekspertizasini tashkil qilish, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni tashkil etish masalalari bO’yicha umumiy qoidalar haqida malumotlar mavjud.

Ikkinchi gumh ilmiy nashrlar, xususan, "O’zarxiv" agentligi axborotnomalarini, arxivlaming asosiy ish qoidalari, nizomlarini keltirilgan me'yoriy hujjatlar hamda "O’zarxiv" agentligi va O’zbekiston Respublikasining viloyat davlat arxivlari faoliyatlarini yoritilishiga baғishlangan yangi ilmiy nazariy talablar asosida yozilgan tadqiqotlami kiritish mumkin. G.S.Teiiukulov, M.S.Isakova, V.G.Iofe, R.N.Ne'matov, I.A.Alimov, U.Jumaev, D.M.Murodullaeva va boshqa bir qator mualliflar tomonidan e'lon qilingan tadqiqot ishlari bunga misol bO’ladi. Ushbu ilmiy maqola va tadqiqot ishlarida O’zbekistonda arxiv ishi sohasida mustaqillik yillarida erishilgan yutuq hamda bartaraf etilishi lozim bO’lgan kamchiliklar kO’rsatib berilgan^. Ushbu gumhga kiritilgan huquqiy- meyoriy hujjatlar hamda mustaqillik davrida yaratilgan ilmiy va O’quv-uslubiy adabiyotlarda mamlakatimiz arxiv muassasalarida, xususan, Sirdaryo viloyat arxivida ish yuritishni tartibga solish, arxiv ishi nazariyasi va amaliyotida yangi tartib-qoidalami yaratish hamda ulami amaliyotda qO’llash masalalari yuzasidan qator muhim malumotlar jamlangan Bunda keltiriladigan huquqiy-me'yoriy hujjatlar respublika arxiv muasasalari, xususan Sirdaryo viloyati davlat arxivida

^ TfflieyKyjioB r.c. ApxHBHoe jtejio B YSGEKHCXAHE (1918-1980 r.r.) OHHT H npoOjieMH.: /],HCC... HE COHCK. yHeHott CTcneHH KaHfl.HCT.HayK.- T.: TamrY, 1995; HcaKOBa M.C. ApxHBti - xpanHma 4)aKT0B HCTopHH. / HapoflHoe cjiOBO, 18 anpejiH 2001. - C.3; O’sha muallif. O’zbekistonda arxiv ishini rivojlantirishning huquqiy asoslari. / Qonun himoyasida, 2003. - X2IO. - B.31-33; O’sha muallif. CTanoBJieHHe H pasBHTHe apxHBHoro nejia B y35eKHCTaHe. - T.: VHHBepcHTeT, 2012; I.A.Alimov. Arxivshunoslik. - Andijon, 2005; Alimova N.I. Noyob qO’lyozmalar taqdiri. / Muloqot. - 2001. - M4. - B. 34-36; N.Ibrohimov. Dunyoga sochilgan xazina. // "O’zarxiv" agyentligi axborotnomasi. // 2003. - J^230. - B.4-15; Arxiv ishi va ish yuritish sohasida elektron texnologiyalami keng joriy etish. // "O’zarxiv" agentligi axborotnomasi. 2005. - >F235. - B.21-33; HoFe B.r. HoBoe B ynpaBJieHHH apxiiBHHM flenoM Pecny6jiHKe y35eKHCTaH. / OTeqecTBeHHtie apxHBbi. - 2006. - JV2I. - C.126-128; PawaOoB K;. ApxHB xy>K>KaTJiap canTaHaTH / VsSeKHCTOH OBO3H, 1999 HHJI 11 Man; Xa5H6yjiJiaeB H. HcTopHJi nHctMeHHOCTH H pyKonHCHOH KHHTH HapojioB CpeflHeft ASHH (IX - Hanajie XX BB.) - T.: VMSFL, 2008; >KyMaeBy. ypTa Ocne Ba ...eKHCTOHfla apxHB ... TapHXH ... acocHM apxHBJiapn. - T. 2010;

ish yuritishni tashkil etish, arxiv muassasalarini boshqarish va boshqalar tO'ғrisidagi eng sO'nggi tartib qoidalar majmuidan tashkil topgani bilan ahamiyatlidir.

**Tadqiqotning manbaviy asosi** sifatida O'zbekiston Respublikasi arxiv sohasiga oid qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari, "O'zarxiv" agenthgi yillik statistik ma'lumotlari, Sirdaryo viloyat arxiv ishi boshqarmasining 1996-2013 yillarga oid hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivining 399-fondi "Turkiston Respublikasida arxiv ishi markaziy boshqarmasi", 400-fondi "O'zbekiston Respublikasi Bosh Arxiv Boshqarmasi" fondlari hamda Sirdaryo viloyat davlat arxivining quyidagi bO'limlari fondlari hujjatlaridan foydalanildi.

1. Davlat boshqaruvi
2. Rejalashtirish va statistika, davlat standarti
3. Sanoat
4. Qishloq, O'rmon, suv xO'jaligi
5. Qurilish va arxitektura
6. Transport
7. Aloqa, radio va televidenie
8. Savdo. Umumiy ovqatlantirish tarmoqlari
9. Ta'minot va tayyorlov
10. Moliyalashtirish, kredit, davlat suғurtasi
11. Uy-joy kommunal xO'jaligi, maishiy xizmat
12. Xalq ta'limi, mutaxassislami tayyorlash
13. Fan
14. Madaniyat, ma'rifat, tahririyat, madaniy oqartuv
15. Soғliqni saqlash va ijtimoiy ta'minot, sport
16. Adliya, sud, prokuratura, xO'jalik sudi
17. Jamoat tashkilotlari

**Davriy matbuot materiallari.** Tadqiqot ishida davriy matbuot materiallaridan "O'zarxiv" Agentligining Axborotnomasi, O'zR qonun hujjatlari

tO’plami materiallaridan foydalanilgan bO’lib, ularda chop etilgan maqolalar viloyat arxiv ishini yoritishda muhim manba bO’hb xizmat qildi.

Mavzuni yangi ma'lumotiar bilan boyitish maqsadida Intemet saytlaridan ma'lumotlar kO’rib chiqildi.

Shuningdek, viloyat davlat arxivi fondlari hujjatlaridan foydalanilgan holda davriy matbuotda, xususan, Sirdaryo viloyatining "Sirdaryo haqiqati" gazetasida e'lon qilingan ilmiy-ommabop maqolalarda keltirilgan materiallardan keng foydalanildi^.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Tadqiqotning asosiy maqsadi O’zbekistonda arxiv ishining shakllanishi va rivojlanishida Sirdaryo viloyat davlat arxivining O’mi va ahamiyati yoritib berishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun aniq belgilangan quyidagi vazifalar ilgari surildi:

- O’zbekistonda viloyat arxivlari tashkil topishiga asos bO’lgan huquqiy- me'yoriy hujjatlami O’rganish, arxiv tarixiga oid arxiv hujjatlarini ilmiy taxlil etish;
- Sirdaryo viloyat davlat arxivi tarixini yoritish;
- Viloyat davlat arxivining manbaviy asosini tashkil etuvchi tashkilotlar, muassasa va korxonalar hujjatlarining O’ziga xosligini aniqlah va tahlil etish;
- Arxivning mustaqillik yillaridagi faoliyatini tadqiq etish: islohotlar va ulaming natijalarini talqin etish;
- Respublikamizda arxiv ishi sohasida qabul qilingan qonun hujjatlarining viloyat davlat arxividagi amaliy ijrosini yoritib berish;
- Viloyat davlat arxivida saqlanayotgan hujjatlar tarkibini tasniflash;
- Viloyat arxivida zamonaviy axborot texnologiyalami qO’llanishi, jumladan, hujjatlaming elektron shaklini yaratish, saqlash va ulardan foydalanishni amalga oshirish borasidagi ishlami tahlil etish.

^ ApxHB HniH **HHMa?** /CHpaape x,aKHKaTH. 2010 HHJI, 13 Hoa5pi>; ApxHBJiap JIHRHJIAHHIU **5ocKHHHfla.** /CHpaape x,aKHKaTH. - 2013 HHJI, 12 HioHb; Shf MyKajxjiac 5oHJiHrHMH3 - MycTaKHJiJiHrHMHS. /Cnpaape xaKHKaTH. - 2013 HHH, 28 **aBrycT.**

Shuningdek, olib borilgan tadqiqot natijalari asosida umumlashtiruvchi xulosalar hamda davlat arxivi faohyatini yanada takomillashtirish bO’yicha takhf va tavsiyalar ishlab chiqish belgilab ohndi.

**Bitiruv-malakaviy ishining ilmiy yangiligi.** Tadqiqotda maxsus ilmiy muammo sifatida O’rganilgan dolzarb masala, ya'ni Sirdaryo viloyat davlat arxivi tarixi va uning hujjatlari ilk bor kompleks tarzda tadqiq etildi. Shuningdek, arxivni MAF hujjatlari bilan jamlash, saqlash, foydalanishga oid faoliyati va arxiv manbalarining O’zbekiston tarixini O’rganishdagi ahamiyati ochib berildi. Ohb borilgan tadqiqotlar davlat arxivi faohyatini tashkil etishda sezilarh darajada amaiiy tajriba tO’planganhgini, viloyat tarixini yorituvchi hujjatlami muntazam ravishda jamlash, but saqlanishini ta'minlash, davlat hisobini olib borish va hujjatlardan ilmiy-amaliy maqsadlarda foydalanish bO’yicha ishlab chiqilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlarga asoslanib ish olib borilayotganligi O’rganildi. Biroq, amaldagi arxiv ishi holatida ayrim kamchiliklar mavjudhgi, xususan, malakah arxiv mutaxassislarining yetishmasligi, arxivning moddiy-texnika bazasi yetarli darajada emashgi, arxiv ishiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish borasida qator kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Mazkur masalalami hal etish yuzasidan nazariy xulosa va takhflar ishlab chiqildi.

**Ishning ilmiy-amaliy ahamiyati.** Bitimv malakaviy ishida keltirilgan ma'lumotlar, ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalar awalo Sirdaryo viloyat davlat arxivi ishini takomillashtirish, qolaversa, O’zbekistonda, xususan, viloyat davlat arxivlari faoliyatidagi kamchiliklami bartaraf etishda qO’llanma sifatida foydalanilishi mumkin. Bundan tashqari bitimv-malakaviy ishi materiallaridan arxivshunoslik ixtisosligi bO’yicha tahsil olayotgan oliy va O’rta maxsus ta'lim muassasalari talabalariga ma'mza matnlari, maxsus kurs, ochiq darslar tashkil etishda foydalanish mumkin. Shuningdek mazkur tadqiqot materiallari asosida ilmiy risola yoki uni takomillashtirib, monografiya chop ettirish mumkin.

**Bitiruv-malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi.** Mazkur tadqiqot ishi kirish, 2 ta bob, 6 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar rO’yxati, shuningdek ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 57 bet.

## IBOB. SIRDARYO VILOYATIDA ARXIVISHINING TASHKIL ETILISHI

### 1.1. Sirdaryo viloyatida arxiv ishining tashkil etilishi tarixi

Ma'lumki, Sirdaryo viloyat davlat arxivining vujudga kelishi viloyatning tashkii etilishi bilan chambarchas boғliq. Sirdaryo viloyatining tashkil topishi munosabati bilan respublika hukumatining 1962-yil 5-maydagi 403-sonli qarori e'lon qilingan. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan ishlar va 1963-yil 15-iyunda Sirdaryo viloyati ijroiya qO’mitasining "Sirdaryo oblastida davlat arxivlarini tashkil qilish to'ғrisida"gi 4/89-sonli qaroriga asosan viloyat davlat arxivi tashkil etilgan. Shundan boshlab, Sirdaryo viloyatida arxiv ishi yO’lga qO’yilgan va unda viloyatning davlatga tegishli korxona va tashkilotlari hujjatlarini jamlash, ulami saqlash va ulardan foydalanish yO’lga qO’yilgan. Guliston shahriga xizmat kO’rsatish esa viloyat davlat arxivi xizmati doirasiga

7 • • • 8

kiritilgan . Viloyat davlat arxivi dastlab 18 shtat birligida ish yuritishni boshlagan . Shuningdek, mazkur qaror bilan Sirdaryo shahrida Sirdaryo va Guliston tumanlariga xizmat kO’rsatuvchi Sirdaryo tumanlararo arxivi, Yangier shahri va tumaniga xizmat kO’rsatuvchi Yangier tuman arxivi, Jizzax shahri va tumanlariga xizmat kO’rsatuvchi Jizzax tuman davlat arxivi, Kirov hamda Paxtaorol tumanlariga xizmat kO’rsatuvchi Kirov tumanaro arxivlari tashkil etilgan va ularda ham ish yuritish yO’lga qO’yilgan. Mazkur tuman arxivlari shtat birligi dastlab 8 tani tashkil etgan^.

Respublika hukumatining 1965-yil 26-martdagi 172-sonli qaroriga asosan viloyat ijroiya qO’mitasining 1965-yil 16-iyundagi 7/268-sonli "Kelgusida Sirdaryo oblastida arxiv ishini rivojlantirish tO’ғrisida"gi qarori bilan viloyat ijroiya qO’mitasi qoshida arxiv bO’limi tashkil etilgan'^. Shuningdek, Sirdaryo

' SVDA F-91, p-1, yj.-56,l 13-varaq. ®
SVDA F-91, p-1, yj.-56, 115-varaq.
SVDA F-91, p-1, yj.-267,160-varaq.
SVDA F-91, p-1, yj.-267,158-varaq.

viloyat davlat arxivining Jizzax, Sirdaryo, Kirov va Yangier filiallaridan iborat arxiv muassasalari tarmoғi tashkil qilingan. Mazkur qaroming 6-bandi bilan arxiv bO’limida 20 kishidan iborat xO’jalik hisobidagi guruh faoliyati tasdiqlangan buyruqqa asosan yO’lga qO’yilgan^^

Bunga qadar Respubhkada arxiv ishini tashkil etish va rivojlantirish borasida bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan bO’Hb, ularda keltirib O’tilgan tartib-qoidalar asosida amaliy ishlar yO’lga qO’yilgan edi. Xususan, 1918-yil 1- iyunda sovet hukumati tomonidan e'lon qilingan "Arxiv ishini qayta qurish va markazlashtirish tO’g'risida"gi dekretdan sO’ng barcha arxivlar markazlashtirilgan^^. Mazkur dekretga asosan, 1917-yilga qadar mavjud bO’lgan barcha idoraviy arxivlar tugatilib, respublikaning yagona davlat arxiv fondi (YADAF) tashkil etilgan. Uni Turkiston Respublikasi Arxiv ishi bosh boshqarmasi boshqargan. 1919-yil 15-noyabrda bu boshqarma Arxiv ishi markaziy boshqarmasiga aylantirilgan.

1919-yil 5-noyabrda tashkil etilgan Turkiston Avtonom Respublikasining Yagona Davlat arxivi fondiga nafaqat 1917-yildan oldingi tashkilotlar arxiv hujjatlari, balki sovet tashkilotlari arxiv hujjatlari ham qabul qilinar edi. Tashkilotlarda hujjatlar 5-yil saqlanishi va keyin davlat arxivlariga topshirilishi belgilangan. Bu qoida 1921-yil 30-sentyabrdan kuchga kirgan.

Ushbu davrga kelib joyiarda viloyat arxiv bO’limlari tashkil qilina boshlangan. Masalan, 1920-yil martda Farғonada, 1920-yil iyunda Samarqandda, O’sha yilning noyabrida Yettisuvda, 1921-yil martda Kaspiy orti viloyatida ana shunday arxiv bO’limlari tashkil qilindi. Mahalliy arxiv tashkilotlari Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari Sovetining 1921-yil 25-yanvardagi "Viloyat arxiv fondlari tO’ғrisida"gi'^ qarori qonuniy jihatdan rasmiylashtirilgan. Bu qarorga binoan viloyat hududidagi barcha idoralaming ish yuritish hujjatlari viloyat davlat arxivi fondining tarkibiy qismi hisoblanadi, deb kO’rsatildi.

" SVDAF-91,p-l,yj.-56, 116-varaq.
12 O’z RMDA, f.R-399, r.l, yj. 3. 13- varaq.
13 O’zRMDA, f.R-399, r.l, yj. 3. 27- varaq.

Markaziy va mahalliy arxiv taslikilotlarining muhim vazifasi arxiv hujjatlarini qidirib topish va yiғish edi. 1921-yil 25-yanvardan arxivlarda qO’lyozma hujjatlargina emas, balki nashr qilingan materiallar va foto hujjatlar ham yiғila boshlangan (varaqalar, hisobnomalar, tarixiy kitoblar va risolalar). Bu kabi arxiv hujjatlarini saqlash chora-tadbirlariga ham alohida ahamiyat berilgan. Arxiv tashkilotlari hujjatlami qabul qilish bilan birga ulami tartibga keltirish ishlari hamda arxiv hujjatlaridan foydalanishni tashkil qilish ulami bayon qilish ishlari ham amalga oshirilgan. Arxiv hujjatlarining rO’yhatini tuzishdan oldin bu hujjatlar kerak va keraksizlarga ajratilib, doimiy saqlash yoki yO’q qilish tartiblari belgiiandi. Ya'ni arxiv materiallarining O’ziga xos ekspertizasi O’tkaziladigan bO’ldi. Bu masala bO’yicha Turkiston Respublikasi XKS ning 1923-yil 25- yanvardagi "Arxiv hujjatlarini saqlash va yO’q qilish tO’ғrisida"gi qarorida yO’l- yO’riqlar kO’rsatib berilgan.

Ushbu qarorda arxiv hujjatlarini yO’q qilishning quyidagi tartibi O’matilgan, xususan, arxiv hujjatlari tarkibidan yO’q qilinadigan hujjatlami ajratish uchun, ajratish komissiyalari tuzilib, arxiv boshqarmasi va arxivi tekshirilayotgan idora vakillari kiritilishi belgilangan. Bu komissiya qarorini Markaziy arxiv ishi boshqarmasi huzuridagi ekspert tekshirish komissiyasi kO’rib chiqib, O’z xulosasini Boshqarma boshliғi tasdiғiga havola qilardi. Shunday qilib, tashkilotlar hujjatlami yO’q qilish huquqi Bosh arxiv ishi Boshqarmasiga topshirildi. Davlat tashkilotlari uning mxsatisiz arxiv hujjatlami yO’q qilish huquqiga ega emas edi.

1924-yili O’rta Osiyoda milliy hududiy chegaralanish O’tkazilgan. Buning natijasida O’zbekiston SSRning O’z arxiv tashkilotlari vujudga kelgan. Arxiv hujjatlari yangi tuzilgan respublikalar O’rtasida quyidagi tartibda bO’lindi, ya'ni O’rta Osiyo va ittifoq ahamiyatiga ega bO’lgan arxiv fondlari O’rta Osiyo Markaziy davlat arxivida - Toshkentda saqlanadigan bO’ldi. Bunda O’rta Osiyo respublikalari tarixiga oid arxiv fondlari hujjatlari O’zbekiston respublikasiga

berilishi kelishib olingan^'^.

Hukumatning 1925-yil 22-iyuldagi qarori bilan "O’z SSR arxiv ishi boshqarmasi tO’ғrisida" gi nizom taqiqlandi. Bu nizomga kO’ra respubhkada yagona davlat arxiv fondi (YADAF) tashkil qilindi^^. Bu fondga hukumat, savdo, sanoat, koperativ, kasaba uyushmalari tashkilotlari arxivlari, shuningdek diniy va shaxsiy arxivlar kiritilgan^^. Sovet davri arxivlarining kO’payib borishi bilan, Davlat arxivi fondi kehb chiqishi bO’yicha inqilobgacha va sovet davri arxiv fondlariga hamda ahamiyati bO’yicha markaziy va mahalliy arxiv fondlariga bO’lingan.

1935-yil mahalliy arxivlar tarixida ham katta voqea sodir bO’ldi. Respublika hukumatining 1935-yil 21-dekabrdagi qaroriga binoan respublikaning barcha shahar va tumanlarida davlat arxivlari tashkil qilindi. 1936 yili respublikada 31 ta tuman davlat arxivlari va arxivi bO’lmagan shaharlarda shahar davlat arxivlari tashkil etilgan.

1930-yillarda respublika arxiv tashkilotlari kadrlar bilan ham ancha mustahkamlandi. 1941 yilga kelib malakali kadrlar soni 111 taga yetdi. Xususan, ushbu davrda Sirdaryo viloyati arxiv muassasalarida 7 ta mutaxasis arxivchilar faoliyat yuritishgan. 1932-1941 yillarda Moskva davlat tarix va arxiv instituti qoshida malaka oshirish kursiga 18 kishi yuborilgan. Bundan tashqari Respublika Markaziy arxiv boshqarmasi qoshidagi malaka oshirish kursida shahar, tuman, viloyat arxivlari xodimlari muttasil malakasini oshirib borgan.

Shunday qilib, 1925-1940 yillarda Respublika arxiv tashkilotlari tashkiliy jihatdan ancha mustahkamlandi. Davlat arxivlari tizimi vujudga keldi. Markaziy, viloyat, tuman, davlat arxivlari tashkil qilindi. 1930 yillarda kO’plab yangi hujjatlar davlat arxivlariga qabul qilingan va tartibga solingan, Bu hujjatlardan ilmiy tadqiqot ishlarida keng foydalanila boshlangan.

1941-yili O’zbekiston tarkibida Andijon, Sirdaryo, Surxondaryo, 1943-yili

» Alimov I.A.Arxivshunoslik. - Andijon: ADU, 2005. - B.13. " O’z R MDA, f.R-400, r.l, yj. 3- varaq. O’shahujjat.-3-varaq.

Qashqadaryo viloyatlari tashkil etihshi munosabati bilan^^ viloyat Ichki Ishlar Xalq Komissarlari boshqarmasida arxiv bO'linmalari va viloyat davlat arxivlari ochildi.

Hukumatning 1943-yil 18-fevraldagi qarori bilan O'zbekiston kino-foto- fono hujjatlari markaziy davlat arxivi ish boshlagan. Shu munosabat bilan, kino- foto-fono hujjatlami saqlash va ulardan foydalanish tartib-qoidalari ishlab chiqilgan.

Respublika hukumatining 1943-yil 2-oktabrdagi kO'rsatmasiga asosan viloyat davlat arxiviga quyidagi vazifalar belgilab berilgan: hisobot hujjatlarini saqlash; ilmiy-texnikaviy hujjatlami qayta tayyorlash; ilmiy-texnikaviy ishlar; maqola, tO'plamlar, huquqiy-me'yoriy hujjutlami tayyorlash; ma'lumotnoma, nusxalar va boshqa hujjatlami berish. Arxiv xodimlari hujjatlami ehtiyot qilish maqsadida tashkilotlar arxivlarida hujjatlami tartibga solish va ulami davlat arxivlariga qabul qilishga alohida e'tibor berishgan.

1950-yillar oxiriga borib respublikada arxiv tashkilotlarining tartibli tizimi vujudga kelgan. Bu tizim ilmiy va tarixiy ahamiyatga ega bO'lgan barcha hujjatlami ehtiyot qilib saqlash va va ulardan foydalanishni tashkil qilish imkonini berardi.

1960-yillar boshida respublika arxivlari taraqiyotida yangi davr boshlandi. Arxiv tashkilotlarini bevosita O'zbekiston Ministrlar Sovetiga bO'ysindirilishi Respublikada arxiv ishining rivojlanishiga yordam beradi. Minstirlar Sovetining 1961-yil 9-maydagi qarori bilan O'zbekiston Ichki Ishlari Ministirligining arxiv boshqarmasi O'zbekiston Ministrlar soveti huzuridagi Arxiv boshqarmasi qilib qayta tashkil qilindi. Shu qaror asosida mahalliy arxiv tashkilotlari Qoraqalpoғiston Respublikasi va viloyat arxiv bO'limlari qilib qayta tashkil qilindi.

Arxiv tashkilotlari respublika davlat hokimiyati va boshqamv organlari bilan teng huquqli bO'lib qoldi va ular arxiv ishi yuritishni tashkil qilish faoliyatini nazorat qilish huquqiga ega bO'ldilar. Arxiv tashkilotlarinig asosiy vazifasi siyosiy.

" O'zbekiston SSRning ma'muriy-teritorial bO'linishi. - T., 1954. - B.1-34.

iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy amaliy ahamiyatga ega bO’lgan hujjatlar saqlanishini ta'minlash hisoblanadi. Ular tarixiy hujjatlami davlat saqloviga tanlab oHsh, saqlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun arxiv tashkilotlari hujjatlar qimmatdorligini ekspertiza qilishga va ular bilan davlat arxivlaridagi butlash ishlariga katta e'tibor beradi.

1961 yildan boshlab davlat arxivlarining ekspert-tekshiruv komissiyalari (ETK) vazifalari tubdan O’zgargan. ETK ning ekspertiza masalasida asosiy vazifa davlat arxivlarini nazorat qiladigan tashkilotlar topshirgan doimiy saqlanadigan

1 Q

hujjatlaming rO’yxatini kO’rib chiqish va tasdiqlashdan iborat bO’lgan .

Shunday qilib, Sirdaryo viloyatida davlat arxivining tashkil etilishiga qadar respublikada arxiv ishini yuritish va rivojlantirish borasida qator islohotlar amalga oshirilgan bO’lib, 1963 yil 15 iyunda tashkil etilgan Sirdaryo viloyat davlat arxivida ham yuqorida keltirib O’tilgan sohaga tegishli huquqiy-me'yoriy hujjatlarda keltirilgan tartib-qoidalar asosida ish yuritish yO’lga qO’yilgan^^.

1986-1990-yillarda davlat arxivlarini butlash sohasida viloyatda bir qancha ishlar amalga oshirildi. Davlat arxivlarini butlash manbayi hisoblangan tashkilotlar rO’yhatiga aniqlik kiritilgan va tO’ldirilgan^^.

1989-yil 21-oktyabr O’zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan keyin arxivlarda ish yuritish O’zbek tilida olib borila boshlandi.

Sirdaryo viloyatida mustaqillikka qadar arxiv ishi yO’lga qO’yilgan bO’lib, arxivlarda ish yuritish tizimi ishlab chiqilgan va rivojlantirilgan edi. Biroq barcha sohalarda bO’lgani kabi sovet davrida arxiv ishi sohasiga oid dolzarb masalalar hukmron tuzum siyosatiga bO’ysundirilgan bO’lib, bu borada xolis fikr yuritilishiga imkon bO’lmagan.

Xususan, respublikaning barcha arxiv muassasalarida bO’lgani kabi Sirdaryo

rocyflapcTBeHue apxHBti CCCP cnpaBHHHHK 2.H. - Jl.72-75. }KyMaeB Y. VpTa OcHe Ba y36eKHCTOHfla apxHB HHIH TapnxH... - B. 31. HcaKOBa M, CTAHOBJIEHHE H pasBHTHe apxHBHoro aejia B y36eKHCTaHe... - C.109.

viloyat davlat arxivlarida ham ish yuritish rus tilida amalga oshirilgan. Umuman, respublika arxiv ishi sohasi markazdan nazorat ostiga oHngan bO’lib, O’zbek xalqi milliy qadriyatlarini tarғib etuvchi qimmatli arxiv hujjatlarini jamlash, saqlash va ulardan foydalanishga imkon berilmagan. Mazkur hujjatlami nashr etish masalasi e'tibordan chetda qoldirilgan. Sovet davri arxiv muassasalarida faqatgina davlat tashkilotlari, muassasa va korxonalarining hujjatlarini jamlash, saqlash va ulardan foydalanish mumkin bO’lgan. Shuningdek, davlat arxiv muassasalarining aksariyati foydalanishga yaroqsiz ahvolga kelib qolganiga qaramay, ulami ta'mirlash hamda zamonaviy moddiy texnika bazasi, zamriy jihozlar, yonғin va boshqa favqulodda vaziyatlarga qarshi vositalar bilan ta'minlangan yangi binolami foydalanishga berish masalasi ilgari surilmagan.

## 1.2. Sirdaryo viloyat davlat arxivining mustaqillik yillaridagi faoliyati (1991-2013 y.)

Ma'lumki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan sO’ng barcha sohalarda yangi islohatlar amalga oshirildi. Jumladan, arxiv ishini rivojlantirish, arxiv muassasalarida ish yuritish, ulami boshqarish, arxiv hujjatlarini jamlash, saqlash, hisobga olish, ulami butlash hamda O’zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi (O’zR MAF) hujjatlaridan foydalanishni tashkil etish borasida qator qonun va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Mustaqil davlatni har tomonlama rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini ta'minlash kO’p jihatdan zamon talabiga javob beradigan rahbar hamda mutaxassis kadrlami tayyorlash sifatiga ham boғliq. Shundan kelib chiqib, arxiv sohasida malakali mutaxassis xodimlami tayyorlash masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Ushbu dolzarb masalaning yechimini topish maqsadida respublikada qabul qilingan qonun hujjatlarini mutaxassislar ikki bosqichga bO’lib O’rganishgan. Bular:

- dastlabki bosqich - 1991-2001 yillar;
- ikkinchi bosqich 2001 -yildan hozirga qadar.

Dastlabki bosqich mustaqil O’zbekiston hujjatchilik tizimi poydevorini barpo etish sohasida puxta va jiddiy ish oHb borilgan davr bO’ldi. Xususan, 1996 yilda "O’zbosharxiv" tomonidan O’zbekiston Respublikasida arxiv ishini 2000-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bu konsepsiya davlat arxiv muassasalari xizmati faoliyatining metodologik harakat dasturi edi. Ushbu konsepsiyada keltirilgan tamoyillar jamiyat va davlatni axborot bilan ta'minlashdagi imkoniyatlami kengaytirish, jamiyatning hujjatli yodgorliklarini saqlashdagi rO’lini orttirishga qaratilgan edi.

Ushbu qonun arxivlami shakllantirish, saqlash va ulardan foydalanishda yuzaga keladigan munosabatlami xamda O’zbekiston Respublikasi arxiv muassasalari faoliyatini tartibga solishga xizmat qilgan. Mazkur qonun O’zbekiston xududida mavjud bO’lgan barcha arxiv hujjatlarini tO’liq qamrab olishga, O’zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondining yaxlitligini saqlab qolishga va fuqarolar, jamiyat va davlatning ijtimoiy, madaniy, ilmiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish maqsadida arxiv hujjatlarini hisobga olish, ekspertiza qilish, rO’yxatdan O’tkazish, butlash xamda ulardan foydalanishning yagona tartibini belgilashga qaratilgan^^

"Arxivlar tO’ғrisida"gi O’zbekiston Respublikasi qonunida qonunning maqsadi va vazifalari, arxivlar tO’grisidagi qonun hujjatlari, asosiy tushunchalar, O’zR MAFning tashkil etilishi, arxiv hujjatlariga bO’lgan mulkdorlik huquqi, arxivlar tuzish huquqi, arxiv hujjatlarini doimiy saqlash tartiblari, idoraviy arxivlar, fuqarolaming shaxsiy arxivlari, qayta tashkil etilayotgan va tugatilayotgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlaming arxiv fondlarihujjatlarini saqlash qoidalari O’z aksini topgan. Shuningdek, bunda arxiv ishini davlat tomonidan boshqarish, davlat arxiv muassasalarini moliyalash, arxiv muassasalarining xizmatlari, arxivlami butlash, hujjatlar saqlanishini ta'minlash yuzasidan mulkdorlaming majburiyatlari, O’zR MAF hujjatlarini davlat hisobiga

O’zR "Arxivlar tO’ғrisida"gi Qonuni. - Toshkent. 1999 yil, 15 aprel. - 1-modda.

olish, arxiv hujjatlaridan foydalanish, arxiv ishi sohasidagi xalqaro hamkorlik, O’zR MAF hujjatlarining O’zbekistondan olib chiqilishi, soha faoliyatida uchraydigan nizolami hal etish va "Arxivlar to'grisida"gi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik kabi masalalarga oid tartib qoidalar O’z aksini topgan.

"Arxivlar to'g'risida"gi O’zbekiston Respubhkasi Qonuni 1999-yildan 2010- yilgacha bO’lgan davrda Respublika arxiv muassasalarida, xususan, Sirdaryo viloyat davlat arxivi va uning filiallarida ham ushbu qonun qoidalariga asosan ish yuritilgan. 2010-yil 15-iyunda esa sohani takomillashtirish borasida mukammallashtirilgan tartib-qoidalami O’z ichiga olgan "Arxiv ishi tO’ғrisida"gi Qonunning qabul qilinishi va amalga kiritilishi bilan O’z kuchini yO’qotgan.

Ana shunday muhim ahamiyatga ega yana bir huquqiy-me'yoriy hujjat O’zR Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30-oktyabrdagi "Arxiv ishi bO’yicha me'yoriy hujjatlami tasdiqlash tO’ғrisida" 482-sonli Qarori bO’lib, unga ilova qilingan namunaviy nizomlar O’zR MAF tashkil etilishi bilan boғliq O’zgarishlarni amalga tadbiq etishga qaratilgan^^. Mazkur qaroming 3-ilova "O’zR Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Bosh arxiv boshqarmasi ("O’zbosharxiv") tO’ғrisida"gi Nizom bO’lib, ushbu nizom O’zR Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 3-fevraldagi "O’zRda arxiv ishini boshqarishni yanada takomillashtirish tO’ғrisida"gi 49-sonli Qarorining qabul qilinishi bilan O’z kuchini yO’qotgan. Vazirlar Mahkamasining 49-sonli Qaroriga 4-ilovada "O’zbosharxiv" O’rnida tashkil etilgan "O’zarxiv" agentligi tO’ғrisidagi nizom keltirib O’tilgan^l

Ushbu qaror va uning ilovalarida keltirilgan nizomlarda keltirilgan tartib- qoidalar (kiritilgan O’zgartirishlar e'tiborga olgan holda) Respublikaning barcha arxiv muassasaiarida, xususan, Sirdaryo viloyat davlat arxivi va uning filiallarida hozirgi kungacha amalda qO’llanilmoqda.

O’zR Vazirlar Mahkamasining "Arxiv ishi bO’yicha me'yoriy hujjatlami tasdiqlash tO’ғrisida" 482-sonli Qarori. - Toshkent, 1999 yil 30 oktyabr.

^^O’zR Vazirlar Mahkamasining "O’zRda arxiv ishini boshqarishni yanada takomillashtirish tO’ғrisida"gi 49-sonli Qarori // O’zR qonun hujjatlari tO’plamJ, 2004 y., 5-son, 53-modda; 2008 y., 35-36-son, 347-modda; 2010 y., 23- son, 183-modda, 42-43-son, 362-modda; 2011 y., 45-46-son, 470-modda.

O’zR MDA bilan kelishilgan holda 1999-yil 5-noyabrda "O’zR banklarida arxiv ishlarini yuritish tO’g'risida"gi qoidalar majmuyi qabul qilingan bO’lib, bu qoidaiarga 2010-yil 8-sentabrda tegishli O’zgartirishlar kiritilgan. 2007- yil 2-iyunda "O’zbekiston Respublikasi banklarida elektron arxiv ishlarini yuritish tartibi tO’g'risida"gi yO’riqnoma^'^ tasdiqlanib, amalga joriy qilinishi munosabati bilan Sirdaryo viloyati banklari idoraviy arxivlarida ham elektron hujjatlami yuritish va jamlash ishlari bajarila boshlangan.

Shunday qilib, birinchi bosqichda amalga oshirilgan huquqiy islohotlar jarayonida Respublikada hujjatchilik va arxiv sohasidagi yangi ijtimoiy tuzumlaming asoslari yaratildi.

Ikkinchi bosqich 2001-yildan hozirga qadar. Bu bosqichdagi ustuvor yO’nalishlaming barchasini O’ziga qamrab olgan eng muhim vazifa mamlaka- timizda ushbu sohadagi amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirish va izchillikni ta'minlashdan iborat bO’ldi. Bu bosqichda mustaqil rivojlanish yilida tO’plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish eng asosiy vazifa sifatida davom ettirilmoqda.

Xususan, O’zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrdagi "Elektron raqamli imzo tO’ғrisida"gi, "Axborotlashtirish tO’ғrisida"gi, 2004-yil 29- apreidagi "Elektron hujjat aylanishi tO’ғrisida"gi qonunlari O’zbekistonda arxiv ishi sohasida muhim O’zgarishlami amalga tadbiq etishga qaratilgan. Bunda jahonning yetakchi davlatlari arxivlarida joriy etilgan elektron tizim tajribasiga asosan hamda sohaga zamonaviy kompyuter texnologiyalarini qO’llash borasidagi tartib qoidalar O’z aksini topgan^^ Ushbu qonunlar ijrosini ta'minlash xususida O’zR Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O’zarxiv" agentligi bosh direktorining 2007-yil 17-iyul 18-sonli buymғiga asosan "Axborot resurslarining arxiv

